

**QORAQALPOQ DAVLAT UNIVERSITETI HUZURIDAGI ILMIY  
DARAJALAR BERUVCHI PhD.03/30.12.2019.B.20.04 RAQAMLI ILMIY  
KENGASH ASOSIDAGI BIR MARTALIK ILMIY KENGASH**

---

**TOSHKENT DAVLAT PEDAGOGIKA UNIVERSITETI**

**KUYCHIYEVA MO‘JIZAXON ABDUMANNOBOVNA**

**BO‘LAJAK BIOLOGIYA FANI O‘QITUVCHILARINING KASBIY -  
METODIK KOMPETENTLILIGINI RIVOJLANTIRISH**

**13.00.02 – Ta’lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi (biologiya)**

**PEDAGOGIKA FANLARI BO‘YICHA FALSAFA DOKTORI (PhD)  
DISSERTATSIYASI AVTOREFERATI**

**Nukus- 2023**

**Falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi avtoreferati mundarijasi**

**Оглавление автореферата диссертации доктора философии (PhD)**

**Contents of the dissertation abstract of the doctor of philosophy (PhD)**

**Kuychiyeva Mo‘jizaxon Abdumannobovna**

Bo‘lajak biologiya fani o‘qituvchilarining kasbiy-metodik kompetentligini rivojlantirish..... 3

**Куйчиева Мўъжизахон Абдуманнобовна**

Развитие профессионально-методической компетентности будущих учителей биологии..... 23

**Kuychiyeva Mujizaxon Abdumannobovna**

Development of professional and methodological competence of future teachers of biology..... 47

**E‘lon qilingan ishlar ro‘yxati**

Список опубликованных работ  
List of published works..... 47

**QORAQALPOQ DAVLAT UNIVERSITETI HUZURIDAGI ILMIY  
DARAJALAR BERUVCHI PhD.03/30.12.2019.B.20.04 RAQAMLI ILMIY  
KENGASH ASOSIDAGI BIR MARTALIK ILMIY KENGASH**

---

**TOSHKENT DAVLAT PEDAGOGIKA UNIVERSITETI**

**KUYCHIYEVA MO‘JIZAXON ABDUMANNOBOVNA**

**BO‘LAJAK BIOLOGIYA FANI O‘QITUVCHILARINING KASBIY -  
METODIK KOMPETENTLILIGINI RIVOJLANTIRISH**

**13.00.02 – Ta’lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi (biologiya)**

**PEDAGOGIKA FANLARI BO‘YICHA FALSAFA DOKTORI (PhD)  
DISSERTATSIYASI AVTOREFERATI**

**Nukus- 2023**

**Falsafa doktori (PhD) dissertatsiya mavzusi O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasida B2022.2.PhD/Ped3569 raqam bilan ro'yxatga olingan.**

Dissertatsiya Toshkent davlat pedagogika universitetida bajarilgan.

Dissertatsiya avtoreferati uch tilda (o'zbek, rus, ingliz (pesome)) Ilmiy kengashning veb-sahifasida ([www.karsu.uz](http://www.karsu.uz)) va "Ziynet" Axborot ta'lim portalida ([www.ziynet.uz](http://www.ziynet.uz)) joylashtirilgan.

**Ilmiy rahbar:**

**Abdullayeva Barno Sayfutdinovna**  
pedagogika fanlari doktori, professor

**Rasmiy opponentlar:**

**Xushvaqtova Xusnobat Soliyevna**  
pedagogika fanlari doktori, dotsent

**Bazarova Saodat Jamoliddinovna**  
pedagogika fanlari doktori, professor

**Yetakchi tashkilot:**

**O'zbekiston Milliy universiteti**

Dissertatsiya himoyasi Qoraqalpoq davlat universiteti huzuridagi PhD.03/30.12.2019.B.20.04 raqamli Ilmiy kengash asosidagi bir martalik Ilmiy kengashning 2023 yil «28» fevral kuni soat 10<sup>00</sup> daqiqlasida bo'lib o'tadi. (Manzil: 230112, Nukus shahri, Ch.Abdirov ko'chasi, 1-uy, Universitet majlislar zali. Tel.: (+99861) 223-60-78, faks (+99861) 223-60-78, E-mail: [karsu.info@edu.uz](mailto:karsu.info@edu.uz)).

Dissertatsiya bilan Qoraqalpoq davlat universiteti Axborot-resurs markazida tanishish mumkin (№125-raqam bilan ro'yxatga olingan). Manzil: 230112, Nukus shahri, Ch.Abdirov ko'chasi, 1-uy, Universitet majlislar zali. Tel.: (+99861) 223-60-78, faks (+99861) 223-60-78.

Dissertatsiya avtoreferati 2023 yil «13» fevral kuni tarqatildi.  
(2023 yil «13» fevraldagi №1-raqamli reestr bayonnomasi)



**M.A.Jumanov**

Ilmiy darajalar beruvchi bir martalik  
Ilmiy kengash raisi, b.f.d., professor

**M.K.Begjanov**

Ilmiy darajalar beruvchi bir martalik  
Ilmiy kengash Ilmiy kotibi, b.f.f.d.,  
dotsent

**Ya.I.Ametov**

Ilmiy darajalar beruvchi bir martalik  
Ilmiy kengash qoshidagi Ilmiy seminar  
raisi, b.f.d., professor

## KIRISH (falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi annotatsiyasi)

**Dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati.** Jahonda bo‘lajak biologiya fani o‘qituvchilarini kasbiy-metodik kompetentligini rivojlantirishning kreativ texnologiyalari ta‘lim jarayoniga tatbiq etilmoqda. 2015 yil Janubiy Koreyada o‘tkazilgan butun jahon forumida ta‘limning barqaror taraqqiyotini ta‘minlovchi “Ta‘lim-2030” Incheon deklaratsiyasi qabul qilindi va 2030 yilgacha ta‘lim kontsepsiyasida “Ta‘lim – taraqqiyotning asosiy harakatlantiruvchi kuchi va barqaror rivojlanish maqsadlarga yetkazuvchi muhim faoliyat”<sup>1</sup> sifatida e‘tirof etilgan. Kompetensiyaviy yondashuv asosida raqobatbardosh kadr sifatida kasbiy kompetentligini rivojlantirishni talab etadi.

Jahonda ta‘lim va ilmiy tatqiqot muassasalarida biologiya fani o‘qituvchilarining kasbiy-metodik tayyorgarligi sifatini takomillashtirish, ta‘lim jarayonini modellashtirish, loyihalashtirish, kasbiy sifatlar va kompetensiyalarni rivojlantirish strategiyasini belgilash bo‘yicha ilmiy-tadqiqotlar olib borilmoqda. Shu jihatdan, bo‘lajak biologiya fani o‘qituvchilarini xalqaro malaka talablari asosida tayyorlash, ta‘lim sifatini xalqaro darajaga ko‘tarish, biologik ko‘nikmalarining rivojlanish diagnostikasini aniqlash, modulli ta‘lim va ijtimoiy kommunikativlikni faollashtirish, biologiya fani o‘qituvchisining professionallik darajasi monitoringini aniqlash bo‘yicha ilmiy-tadqiqotlarga alohida e‘tibor berilmoqda.

Respublikamizda so‘ngi yillarda bo‘lajak biologiya fani o‘qituvchilarining kasbiy-metodik kompetentligini rivojlantirish, biologik ta‘lim jarayonini axborot kommunikatsion texnologiyalari vositalaridan foydalangan holda tashkil etish, kompetent mutaxassis va kasbiy kompetensiyani rivojlantirib, raqobatbardosh kadrlar tayyorlashning huquqiy me‘yoriy asoslari yaratilmoqda. 2022-2026 yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot Strategiyasida “Maktab ta‘limi sifatini oshirish hamda pedagogik kadrlarning bilim va malaka darajalarini xalqaro darajaga ko‘tarishga alohida e‘tibor qaratildi”<sup>2</sup>. Natijada, kompetentli yondashuv asosida bo‘lajak biologiya o‘qituvchilarining kasbiy-pedagogik faoliyatini pedagogik texnologiyalari asosida takomillashtirishning pedagogik imkoniyatlari kengaymoqda.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 7 fevraldagi PF-4947-son “O‘zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo‘yicha Harakatlar strategiyasi to‘g‘risida” farmoni<sup>3</sup>, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022 yil 28 yanvardagi PF-60-son “2022-2026-yillarga mo‘ljallangan yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to‘g‘risida” farmoni, 2018 yil 5 iyundagi PQ-3775-son “Oliy ta‘lim muassasalarida ta‘lim sifatini oshirish va ularning mamlakatda amalga oshirilayotgan keng qamrovli islohotlarda faol ishtirokini ta‘minlash bo‘yicha

<sup>1</sup> Incheon Declaration / Education 2030: Towards inclusive and equitable quality education and lifelong learning for all-4-5. <http://unesdoc.unesco.org/images/0023/002338/233813m.pdf>.

<sup>2</sup> 2022-2026 yillarga mo‘ljallangan yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to‘g‘risida. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining PF-60-son. Farmoni. 2022 yil 28 yanvar. Qonunchilik ma‘lumotlari milliy bazasi, 29.01.2022 y., 06/22/60/0082-son.

<sup>3</sup> O‘zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo‘yicha Harakatlar Strategiyasi to‘g‘risida. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 7 fevraldagi PF-4947-son Farmoni// O‘zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to‘plami. - T., 2017. 6-son.

qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi qarori, 2017 yil 20 apreldagi PQ-2909-son "Oliy ta'lim tizimini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi qarorlari<sup>4</sup> hamda mazkur faoliyatga oid boshqa me'yoriy-huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirishda ushbu dissertatsiya ishi muayyan darajada xizmat qiladi.

**Tatqiqotning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining asosiy ustuvor yo'nalishlariga mosligi.** Dissertatsiya tatqiqoti Respublika fan va texnologiyalarni rivojlantirishning I."Axborotlashgan jamiyat va demokratik davlatni ijtimoiy, huquqiy, iqtisodiy, madaniy, ma'naviy-ma'rifiy rivojlantirishda, innovatsion g'oyalar tizimini shakllantirish va ularni amalga oshirish yo'llari" ustuvor yo'nalishiga muvofiq bajarilgan.

**Muammoning o'rganilganlik darajasi.** Mamlakatimizda uzluksiz ta'lim tizimida o'qitishning muammolari, ta'lim muassasalarida ta'limni tashkil etish masalalari bo'yicha ma'lumotlar B.Abdullayeva, R.Djurayev, R.Isyanov, N.Muslimov, B.Mirzaxmedov, Yu.Mahmudov, M.Qurbonov, O.Qo'ysinovlar ishlarida keltirilgan. Biologiya fanlarini o'qitishning metodik asoslari A.G'ofurov, J.Tolipova, S.Fayzullayevlar, biologiya o'qituvchilarini kasbiy hamda metodik tayyorgarligini takomillashtirish masalalari A.Raximov, I.Azimov, U.Raxmatovlar, innovatsion ta'limni tashkil etishning konseptual asoslari, axborot kommunikatsiya texnologiyalardan foydalanish afzalliklari va imkoniyatlari A.Abduqodirov, U.Begimqulovlar hamda interfaol ta'limni tashkil etishning amaliy-texnologik jihatlari N.Azizxodjayeva, R.Djurayev, J.Yo'ldoshev, N.Muslimovlar tomonidan tadqiq qilingan.

Mustaqil davlatlar hamdo'stligi mamlakatlarida ta'limda kompetensiyaviy yondashuv masalalari, biologiya o'qitish metodikasini rivojlantirish, o'qituvchilarni kasbiy madaniyatga qiziqtirish va ularda kasbiy kompetentlikni takomillashtirish muammolari I.A.Zimnyaya, YE.Demyankov, E.F.Zeer, A.K.Markova, V.A.Yakunin, N.V.Kuzmina kabi olimlar tomonidan o'rganilgan.

Xorijiy davlatlarda ta'limda kompetensiyaviy yondashuv masalalari yuzasidan dastlabki qarashlar F.Delamare va J.Winterton tomonidan, keyinchalik O.S.Grebenyuk va T.B.Grebenyuklar biologiya fanini o'qitish samaradorligini oshirishning didaktik vositalarini ishlab chiqish va ulardan samarali foydalanish masalalari M.Berkman, B.Bishop, J.Miller, M.Clores, E.Kose tomonidan tadqiq etilgan.

Biroq, Respublikamizda o'qituvchilarining kasbiy-metodik kompetentligini takomillashtirish va kasbiy kompetensiyani rivojlantirish muammosi bilan bog'liq keng qamrovli ilmiy izlanishlar olib borilgan bo'lsada, bo'lajak biologiya fani o'qituvchilarining kasbiy-metodik kompetentligini rivojlantirishga bag'ishlangan alohida ishlar o'rganilmagan. Shu sababli ham, Oliy ta'lim muassasalarida biologiya sohasida ta'lim sifatini oshirishda bo'lajak biologiya fani o'qituvchilarining kasbiy-metodik kompetentligini rivojlantirishga qaratilgan tadqiqot ishlarini olib borish maqsadga muvofiq hisoblanib, nazariy va amaliy jihatdan muhim ahamiyatga ega.

---

<sup>4</sup> O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 20 apreldagi PQ-2909-son "Oliy ta'lim tizimini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida" qarori.

**Tadqiqotning dissertatsiya bajarilgan oliy ta'lim muassasasining ilmiy-tadqiqot ishlari rejaları bilan bog'liqligi.** Dissertatsiya tadqiqoti Toshkent davlat pedagogika universitetida PZ - 20170923121 raqamli "Ta'lim muassasalarida hamkorlik asosida pedagogik faoliyatni rivojlantirish" nomli amaliy loyihasi (2017-2020 yy.) doirasida bajarilgan.

**Tadqiqotning maqsadi** bo'lajak biologiya fani o'qituvchilarining kasbiy-metodik kompetentligini rivojlantirish bo'yicha takliflar ishlab chiqishdan iborat.

**Tadqiqotning vazifalari:**

bo'lajak biologiya fani o'qituvchisini kasbiy-metodik tayyorgarligini aniqlash va rivojlantirishning didaktik imkoniyatlarini tahlil etish;

bo'lajak biologiya o'qituvchilarining kasbiy-metodik kompetentligini rivojlantirish texnologiyasini takomillashtirish;

bo'lajak biologiya fani o'qituvchisining kasbiy-metodik kompetentligini rivojlantirish modelini ishlab chiqish;

bo'lajak biologiya fani o'qituvchisini kasbiy-metodik kompetentligini rivojlantirishga doir ilmiy-metodik tavsiyalar ishlab chiqish va samaradorligini aniqlash.

**Tadqiqotning ob'ekti** sifatida biologiya darslarida talabalarni kasbiy-metodik kompetentligini rivojlantirish jarayoni belgilanib, tajriba-sinov ishlariga Toshkent davlat pedagogika universiteti, Andijon davlat universiteti va Navoiy davlat pedagogika institutlarining 400 nafar talabalari ishtirok etdi.

**Tadqiqotning predmeti** bo'lajak biologiya fani o'qituvchilarini kasbiy-metodik kompetentligini rivojlantirish mazmuni, shakllari, metod va vositalaridan iborat.

**Tadqiqotning usullari.** Tadqiqotda mavzuga doir pedagogik va metodik manbalarni qiyosiy o'rgabish, tahlil qilish, kuzatish, taqqoslash, umumlashtirish, anketalar olish, so'rovnoma, test, tajriba-sinov natijalarini matematik-statistik qayta ishlash kabi usullardan foydalanilgan.

**Tadqiqotning ilmiy yangiligi** quyidagilardan iborat:

bo'lajak biologiya fani o'qituvchisi kasbiy-metodik tayyorgarligini rivojlantirish pedagogik nazariya va amaliyot uyg'unligini ta'minlashning didaktik imkoniyatlarini baholash, o'qitishning vizual-tadqiqiy samaradorligini kengaytirish hamda shaxslararo muloqotga kirishish faoliyatini individuallashtirish jarayonlariga ustuvorlik berish asosida aniqlashtirilgan;

bo'lajak biologiya fani o'qituvchisining kasbiy-metodik tayyorgarligini rivojlantirish jarayoni mustaqil ta'lim olishga ta'sir ko'rsatuvchi tashkiliy-kommunikatsion omillarini tasniflash, modulli ta'lim olish bosqichlarini adaptiv va reproduktiv o'qitishga integratsiyalovchi algoritmli topshiriqlarni umumlashtirish asosida takomillashtirilgan;

bo'lajak biologiya fani o'qituvchilarining kasbiy-metodik kompetentligini rivojlantirish modeli talabalarda mediasavodxonlikni rivojlantirishning dasturiy ta'minoti mazmuni hamda ta'lim jarayonini tashkil etishga doir refleksiv va sinergetik yondashuvlarning pedagogik transformatsiyalashishiga ustuvorlik berish asosida takomillashtirilgan;

bo'lajak biologiya fani o'qituvchilarining kasbiy-metodik kompetentligini rivojlantirish mezonlari kasbiy kompetentlik va shxsiy sifatlarni rivojlantirish mexanizmlarini individual va mustaqil ta'lim sub'ektlarining manfaatlariga adaptiv sinxronlashtirish asosida takomillashtirilgan.

**Tadqiqotning amaliy natijalari** quyidagilardan iborat:

bo'lajak biologiya fani o'qituvchisining biologiya darslarini tashkil etishda kasbiy-metodik kompetentligi tuzilmasi takomillashtirilgan;

biologiya fani o'qituvchisini kasbiy-metodik kompetentligini rivojlantirishda modulda o'qitish texnologiyasi bosqichlari aniqlashtirilgan;

talabalar kasbiy-metodik kompetentligini rivojlantirishga yo'naltirilgan ta'lim texnologiyalari (ta'lim jarayonida qo'llaniladigan interfaol metodlarda talabalarning fikrlash qobiliyatini oshirish, faoliyatli-shaxsga yo'naltirilgan ta'lim mazmunini joriy etish tamoyillari) takomillashtirilgan;

biologiya darslarida talabalarning kasbiy-metodik tayyorgarligini rivojlantirishga doir ilmiy-metodik tavsiyalar ishlab chiqilgan.

**Tatqiqot natijalarining ishonchliligi** ishda qo'llanilgan zamonaviy yondashuvlar, usullar va nazariy ma'lumotlarning rasmiy manbalardan olingani, nazariy ma'lumotlarni tajriba natijalariga mos kelishi ularning OAK tamonidan tavsiya etilgan yetakchi ilmiy nashrlarda chop etilganligi, keltirilgan tahlillar va tajriba-sinov ishlari samaradorligining matematik statistika metodlari vositasida asoslanganligi, xulosa, taklif va tavsiyalarning amaliyotda joriy etilganligi, olingan natijalarning vakolatli tuzilmalar tomonidan tasdiqlangani bilan izohlanadi.

**Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati.** Tadqiqot natijalarining ilmiy ahamiyati biologiyadan darslarni tashkil etish va o'tkazishning didaktik imkoniyatlari ochib berilgani, biologiya ta'limi, jumladan, bo'lajak biologiya fani o'qituvchilari tomonidan olib boriladigan darslarni o'tkazishga qo'yiladigan pedagogik-psixologik, didaktik, metodik va ergonomik talablar ishlab chiqilgani, sinfdan tashqari mashg'ulotlarda talabalarning kasbiy-metodik tayyorgarligini rivojlantirish mazmuni yoritib berilgani, darslarni o'tkazishning tashkiliy-funksional modeli ishlab chiqilgani bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining amaliy ahamiyati biologiya fanidan darslarni o'tkazishning didaktik tizimi ishlab chiqilgani, maxsus tajriba maydonlarida tashkil etish va o'tkazish metodikasining ishlab chiqilgani, darslarni axborot texnologiyalari vositasida tashkil etishning metodik shart-sharoitlari takomillashtirilgani, oliy ta'lim muassasalarida hamda xalq ta'limi xodimlarini malakasini oshirish hududiy markazlarida o'quv dasturlarini ishlab chiqishda biologiya fani o'qituvchisini kasbiy-metodik kompetentligini rivojlantirishda modulli o'qitish texnologiyasi bosqichlari va metodik ta'minotidan foydalanish imkoniyati ishlab chiqilgani bilan izohlanadi.

**Tadqiqot natijalarining joriy qilinishi.**

Bo'lajak biologiya fani o'qituvchilarini kasbiy-metodik kompetentligini rivojlantirish bo'yicha olingan natijalar asosida:

bo'lajak biologiya fani o'qituvchisi kasbiy-metodik tayyorgarligini rivojlantirish pedagogik nazariya va amaliyot uyg'unligini ta'minlashning didaktik imkoniyatlarini baholash, o'qitishning vizual-tadqiqiy samaradorligini kengaytirish hamda shaxslararo muloqotga kirishish faoliyatini individuallashtirish jarayonlariga



ustuvorlik berish asosida aniqlashtirishga oid tavsiyalar Toshkent davlat pedagogika universitetida bajarilgan PZ-2017927124 raqamli “Ta’lim muassasalarida hamkorlik pedagogikasi asosida pedagogik faoliyatni rivojlantirish” nomli amaliy loyiha doirasida belgilangan vazifalar ijrosini ta’minlashda foydalanilgan (Toshkent davlat pedagogika universitetining 2022 yil 22 iyundagi 02-07-1679/04 raqamli dalolatnomasi). Natijada takomillashtirilgan o’quv dasturlari tuzilgan hamda talabalarning kasbiy va metodik kompetentligi darajalarini shakllantirish, baholash, ma’lumotlarni tahlil etish samaradorligini oshirishga imkon yaratilgan;

bo’lajak biologiya fani o’qituvchisining kasbiy-metodik tayyorgarligini rivojlantirish jarayoni mustaqil ta’lim olishga ta’sir ko’rsatuvchi tashkiliy-kommunikatsion omillarini tasniflash, modulli ta’lim olish bosqichlarini adaptiv va reproduktiv o’qitishga integratsiyalovchi algoritmli topshiriqlarni umumlashtirish asosida takomillashtirishga oid tavsiyalar PZ-20170923121 raqamli “Shaxs tarbiyasida milliy xususiyatlarni tadqiq etishning metodologik asoslarini takomillashtirish” nomli grant doirasida belgilangan vazifalarni amalda bajarishda foydalanilgan (Toshkent davlat pedagogika universitetining 2022 yil 22 iyundagi 02-07-1679/04 raqamli dalolatnomasi). Natijada biologiya fani o’qituvchilarining kasbiy-metodik kompetensiyalari rivojlantirilgan hamda oliy ta’lim tizimi o’quv-metodik ta’minoti boyitilishiga imkon yaratilgan.

bo’lajak biologiya fani o’qituvchilarining kasbiy-metodik kompetentligini rivojlantirish modeli talabalarda mediasavodxonlikni rivojlantirishning dasturiy ta’minoti mazmuni hamda ta’lim jarayonini tashkil etishga doir refleksiv va sinergetik yondashuvlarning pedagogik transformatsiyalashishiga ustuvorlik berish asosida takomillashtirishga oid tavsiyalar Toshkent davlat pedagogika universitetida bajarilgan PZ-2017927124 raqamli “Ta’lim muassasalarida hamkorlik pedagogikasi asosida pedagogik faoliyatni rivojlantirish” nomli amaliy loyiha doirasida belgilangan vazifalar ijrosini ta’minlashda foydalanilgan. (Toshkent davlat pedagogika universitetining 2022 yil 22 iyundagi 02-07-1679/04 raqamli dalolatnomasi). Natijada biologiya fani o’qituvchilarining kasbiy-metodik kompetensiyalari rivojlantirilgan hamda axborot kompetentligi darajasini baholash omillari aniqlash imkoni yaratilgan;

bo’lajak biologiya fani o’qituvchilarining kasbiy-metodik kompetentligini rivojlantirish mezonlari kasbiy kompetentlik va shxsiy sifatlarni rivojlantirish mexanizmlarini individual va mustaqil ta’lim sub’ektlarining manfaatlariga adaptiv sinxronlashtirish asosida takomillashtirishga oid tavsiyalar PZ-20170923121 raqamli “Shaxs tarbiyasida milliy xususiyatlarni tadqiq etishning metodologik asoslarini takomillashtirish” nomli grant doirasida belgilangan vazifalarni amalda bajarishda foydalanilgan. (Toshkent davlat pedagogika universitetining 2022 yil 22 iyundagi 02-07-1679/04 raqamli dalolatnomasi). Natijada ta’limni axborotlashtirish sharoitida uzluksiz ta’lim muassasalarida faol axborot almashish imkoniyati va interaktiv texnologiyalardan ijodiy foydalanish kompetensiyasiga ega biolog-mutaxassislarni tayyorlash samaradorligini oshirish imkoni yaratilgan.

**Tadqiqot natijalarining aprobatyasi.** Mazkur tadqiqot natijalari 3 ta xalqaro va 4 ta respublika ilmiy-amaliy anjumanida muhokamadan o’tkazilgan.

**Tadqiqot natijalarining e'lon qilinishi.** Dissertatsiya mavzusi bo'yicha jami 13 ta ilmiy ish, jumladan, 1 ta elektron o'quv qo'llanma, O'zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasi tomonidan doktorlik dissertatsiyalari asosiy ilmiy natijalarini chop etish tavsiya etilgan ilmiy nashrlarda 5 ta maqola, shundan, 2 tasi respublika va 3 tasi xorijiy jurnallarda chop etilgan.

**Dissertatsiyaning tuzilishi va hajmi.** Dissertatsiya ishi kirish, uchta bob, xulosalar, amaliy tavsiyalar, foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati va ilovalardan iborat. Dissertatsiyaning hajmi 119 sahifani tashkil etadi.

## DISSERTATSIYANING ASOSIY MAZMUNI

**Kirish** qismida dissertatsiya mavzusining dolzarbligi asoslangan, tadqiqotning O'zbekiston Respublikasida fan va texnologiyalarni rivojlantirishning ustuvor yo'nalishlariga mosligi ko'rsatilgan, muammoning o'rganilganlik darajasi, tadqiqotning dissertatsiya bajarilgan oliy ta'lim muassasasining ilmiy-tadqiqot ishlari rejalari bilan bog'liqligi bayon etilgan, tadqiqotning maqsadi, vazifalari, shuningdek, ob'ekti va predmeti aniqlangan hamda ilmiy-amaliy ahamiyati, natijalarning ishonchliligi, amaliyotga joriy qilinishi, aprotatsiyasi, nashr ettirilgan ishlar, dissertatsiya tuzilishi va hajmi o'z aksini topgan.

Dissertatsiyaning **“Bo'lajak biologiya fani o'qituvchilarining kasbiy-metodik kompetentligini rivojlantirishning nazariy asoslari”** deb nomlangan birinchi bobida biologik ta'lim – uzluksiz ta'limning asosi, kompetentli yondashuv, pedagogik ta'limning kontseptual asosi sifatida hamda bo'lajak biologiya fani o'qituvchisining kasbiy-metodik kompetentligi tuzilmasi yoritilgan.

Bo'lajak biologiya o'qituvchilarining kasbiy-metodik tayyorgarligini rivojlantirishning pedagogik-psixologik asoslari kasbiy ta'limning asosiy maqsadi, kompetensiya, kompetentlik tushunchalari mazmun-mohiyati, kompetentli yondashuvning o'ziga xos xususiyatlariga muvofiq mazkur sohada faoliyat ko'rsatgan olimlarning zamonaviy qarashlari hamda tadqiqotlari tahliliga tayangan holda ilmiy ma'lumotlar keltirilgan.


Kompetensiyaviy yondashuvga asoslangan ta'lim bugungi kunda o'zining yetarli darajada ilmiy va metodik jihatdan tadqiq qilinmaganligi sababli ba'zi ziddiyatlar, qarama-qarshiliklar va turli mulohazalarga sabab bo'luvchi mavzu hisoblanadi. Bu haqda J.Delor, V.Xutmaxer va rus olimlari A.K.Markova, N.V Kuzminalar turlicha fikr bildirgan. Biz ilmiy ishimizda A.A.Verbitskiy va O.B.Yermakovalarning kompetensiyaviy yondashuv yuzasidan “talabalarning bilimi, ko'nikma va malakalarini amaliyotda qo'llab, yuqori sifat darajasiga ko'tarilishi lozim” deb ta'kidlagan fikrlarini asos qilib oldik.

Bo'lajak biologiya o'qituvchilarni tayyorlashda o'quv, ilmiy va mustaqil ish shakllarining nazariy va amaliy tarkibiy asoslarini maqbul uyg'unlashtirish, amaliy va ijodiy tavsifdagi topshiriqlardan foydalanish maqsadga muvofiq. Nazariy bilimlar ularni amaliyotda qo'llay olish imkoniyatiga ham ega bo'lishi muhim.

Bo'lajak biologiya fani o'qituvchilarining kasbiy-metodik kompetentligini rivojlantirishda biologiya o'qitishning hozirgi holati hamda uning tahlili yoritib berildi (1-jadval).

**1-jadval**

**Bo'lajak biologiya fani o'qituvchilarining kasbiy-metodik kompetentligini rivojlantirishda biologiya o'qitishning hozirgi holati va tahlili**



Ta'lim maqsadi-kimni o'qitamiz?, ta'lim mazmuni-nimaga?, ta'lim metodi-qanday qilib o'qitamiz? degan savollarga javob berish uchun ta'lim tizimida biologiya fanini o'qitish jarayonida an'anaviy va kompetensiyaviy yondashuvning qiyosiy tahlili ishlab chiqildi (2-jadval).

**2-jadval**

**Biologiya fanini o'qitish jarayonida an'anaviy va kompetensiyaviy yondashuvning qiyosiy tahlili**

| T/p | Ta'lim jarayonini didaktik elementlari | An'anaviy yondashuv                                                                    | Kompetensiyaviy Yondashuv                                                             |
|-----|----------------------------------------|----------------------------------------------------------------------------------------|---------------------------------------------------------------------------------------|
| 1.  | Maqsadlar                              | Bilim, ko'nikma va malakalarni shakllantirishga yo'naltirilgan                         | Kompetentlikni rivojlantirish harakatlari bilan ishlash                               |
| 2.  | Ta'lim dasturlari (ta'lim mazmuni)     | Davlat ta'lim standartini amalga oshiradi                                              | Kasbiy-ta'limiy dasturlash vositalari yordamida ijodiy fikrlash qobiliyatini oshirish |
| 3.  | Ta'limni tashkil etish shakllari       | O'quv soatlari xajmining auditoriyada 60%, auditoriyadan tashqari 40% miqdorda tashkil | Individual va frontal ko'rinishda ishlash                                             |

|    |                                                                | etilishi                                                                             |                                                                                                                              |
|----|----------------------------------------------------------------|--------------------------------------------------------------------------------------|------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------|
| 4. | Pedagogik jarayonni tashkil etish va amalga oshirish metodlari | O‘qitishning - auditoriya tizimi doirasidagi an'anaviy metodlar                      | Individual va kompetensiyaviy yondashuvga yo‘naltirilgan noan'anaviy metodlar                                                |
| 5. | Pedagoglarning faoliyat jarayonidagi o‘rni                     | “Nasihatgo‘y”, “axborot beruvchi”, “baholovchi”                                      | “Hamkor”, “maslahatchi”, “yordamchi”, “vositachi”                                                                            |
| 6. | Ta’lim oluvchilarning faoliyat jarayonidagi o‘rni              | Ta’lim oluvchilarning faoliyat jarayonidagi o‘rni”                                   | “Hamkor”, “tajriba o‘tkazuvchi”, “tadqiqotchi”, “konstruktor-yaratuvchi”, olgan bilimlarini notanish vaziyatlarda qo‘llovchi |
| 7. | Ta’lim muassasasini boshqarish tuzilmasi                       | Tuzilma oliy ta’lim muassasasi faoliyatini yuritishga yo‘naltirilgan                 | Tuzilma oliy ta’lim muassasasini rivojlantirishga yo‘naltirilgan                                                             |
| 8. | Ta’limni rivojlantirish texnologiyalarini qo‘llash             | Ta’lim texnologiyalari bilim, ko‘nikma va malakalarni rivojlantirishga xizmat qiladi | Amaliy faoliyatda layoqatlilik va bir vaziyatdan boshqa vaziyatga o‘tishda ijodiy yondasha olish                             |
| 9. | Ta’lim natijalarini nazorat qilish va baholash                 | Bilim, ko‘nikma va malakalarni shakllanganligini tekshirishga yo‘naltirilgan         | Mutaxassisning kasbiy va shaxsiy sifatlari rivojlanish darajasini aniqlashga yo‘naltirilgan                                  |

Kasbiy kompetentlik - mutaxassis tomonidan kasbiy faoliyatni amalga oshirish uchun zarur bo‘lgan bilim, ko‘nikma va malakalarning hayotiy va kasbiy faoliyatda amaliy jihatdan yuqori darajada qo‘llay olish xususiyati hisoblanadi.


Dissertatsiyaning **“Bo‘lajak biologiya fani o‘qituvchilarining kasbiy-metodik kompetentligini rivojlantirishning amaliy texnologik tizimi”** deb nomlangan ikkinchi bobida bo‘lajak biologiya fani o‘qituvchisini kasbiy-metodik kompetentligini rivojlantirish modeli hamda modulli ta’lim texnologiyasidan foydalanish yoritilgan.

Biologiyadan oliy ta’lim muassasalarida ta’lim berayotgan professor-o‘qituvchilar tomonidan ishlab chiqilayotgan va foydalanilayotgan o‘qitish texnologiyalari, bo‘lajak biologiya fani o‘qituvchilarini kasbiy kompetentlikning qaror topishi, ta’lim tizimining tarkibiy qismi bo‘lib, o‘z kasbini egallashning ahamiyatli bo‘lgan dastlabki negizini yaratishga, kelajakda kasbiy faoliyatni yuqori

darajada amalga oshirish uchun nazariy, amaliy va motivatsiyali tayyorgarlikning bosqichma-bosqich shakllanishiga yordam beradi.

Bo'lajak biologiya fani o'qituvchisining amaliyotini quyidagi yo'nalishlarda tahlil qildik: biologik ta'lim uzviyligi masalalarini tahlil qilish; fanlararo bog'lanish orqali murakkab mavzular ustida ishlash; respublika oliy ta'lim tizimida ta'lim sifatini baholash sohasidagi xalqaro tadqiqotlarni tahlil qilish; biologiya fani o'qituvchilari egallashni lozim bo'lgan bilim, ko'nikma va malakalarni o'rganish; biologik ta'lim darslik va o'quv qo'llanmalarining yangi avlodini tahlil qilish; Biologiya - ta'lim yo'nalishi o'quv rejasi va "Biologiya o'qitish metodikasi" fani dasturlarini tahlil qilish.

Bo'lajak biologiya o'qituvchilarni tayyorlashda ham biologiya ham pedagogik nuqtai nazardan kompetensiyalarni majmuaviy tarzda shakllantirish lozimligini hisobga olish lozim. Chunki biologiya ta'limida o'quv, ilmiy va mustaqil ish shakllarining nazariy va amaliy tarkibiy asoslarini maqbul uyg'unlashtirish, amaliy va ijodiy tavsifdagi topshiriqlardan foydalanish maqsadga muvofiq (1-rasm).




### 1-rasm. Kompetentli yo'naltirilgan texnologiyalarni tatbiq etish prinsiplari

Quyida o'qituvchilar tomonidan talabalarga individual yondashuv metodlari keltirilgan: 1-usul, juftliklarda ishlash. Kuchli talabani kuchlisi bilan, o'zlashtirish ko'rsatkichi past talabani xuddi shunday talaba bilan yoki kuchli va bo'sh o'zlashtiruvchi talabalarni birga guruhlab juftlik hosil qilish mumkin. Bunda yuzaga keladigan do'stlikdan ajablanmaslik kerak. Bunda, guruhda turli qobiliyatli talabalar orasidagi munosabatlarga ahamiyat qaratish lozim bo'ladi. 2-usul, kichik guruhlarda ishlash. Guruhlar bir xil yoki turli darajada bo'lishi mumkin. Agar guruhlar ma'lumotlar yig'indisi ustida ish olib borayotgan bo'lsalar, ularning har biriga ma'lumotning turli bo'lagini berib, birga ishlashga yo'naltiriladi. 3-usul, vazifalarni farqlash. Bu metod o'zlashtirish darajasi turlicha bo'lgan talabalar uchun har xil vazifalar ishlab chiqishdan iborat.

Ta'lim jarayoniga integrativ yondashuv asosida model o'z ichiga tadqiqotda o'zaro faoliyatdagi maqsadga qaratilgan, mazmuniga oid, operatsion va baholash-natijaga oid bloklarni oladi. Vazifalar, metodlar, vositalar, shart sharoitlar, shakllar, shuningdek, bunda erishish mumkin bo'ladigan natijalarni ajratib ko'rsatadi. Pedagogik jarayondagi sodir bo'ladigan tizimning asosiy tarkibiy qismlari sifatida

tadqiqotda o‘zaro faoliyatdagi maqsad, vazifalar, metodlar, vositalar, shart sharoitlar, shakllar, shuningdek, bunda erishish mumkin bo‘ladigan natijalarni ajratib ko‘rsatadi. Tadqiqotlarimiz davomida bo‘lajak biologiya fani o‘qituvchilarining kasbiy-metodik kompetentligini rivojlantirish modeli ishlab chiqildi (2-rasm).



**2-rasm. Bo'lajak biologiya fani o'qituvchilarini kasbiy-metodik kompetentligini rivojlantirish modeli**

Talabalarni kompetensiyaviy yondashuv asosida o'z kasbining mutaxassislarini qilib tarbiyalash uchun quyidagicha model asosida xulosa qilish mumkin (2-rasm). Ushbu model asosan, pedagogik jarayon va natijani ochib berishga xizmat qilib, biologiya oliy ta'lim muassasalarida kompetensiyaviy yondashuv asosida biologiya o'qitish metodikasini takomillashtirish jarayonini samarali tashkil etish tanlangan yondashuvlar, shart-sharoitlar bilan o'zaro bog'liqdir.

Ta'lim jarayonini talabalarga intellektning har xil tiplarini jalb qilishni talab etadigan tajribalar orttirish imkoniyatini beradigan holda tashkil etish, dars jarayonida talabalarning axborotni qabul qilish toifalarini inobatga olgan holda, ko'rgazmali qurollar va didaktik vositalarning har xil ko'rinishlaridan foydalanish orqali kompetensiyalarni muvaffaqiyatli shakllantirish mumkin.

Bo'lajak biologiya fani o'qituvchilarini kasbiy-metodik kompetentligini rivojlantirishga mos ravishda ta'lim shakllari, metodlari va vositalaridan foydalanish talab etiladi. Dastlabki so'rov bosqichida biologiya fanidan o'quvchilarga qiyinchilik tug'dirayotgan mavzular to'g'risidagi dastlabki ma'lumotlarni to'plash, sabablariga aniqlik kiritish, mustaqil baholash bosqichida davom ettiriladigan qo'shimcha mashg'ulotlarni tanlash hamda yakuniy saralash bosqichida esa kasbiy-metodik kompetentligini rivojlantirish rejasini ishlab chiqish ishlari olib boriladi (3-jadval)

**3-jadval**

**Ta'lim shakllari, metodlari va vositalari**

| <b>№</b> | <b>Kasbiy-metodik kompetensiyani rivojlantirish bosqichlari</b> | <b>Ta'lim shakllari</b>                                                                              | <b>Ta'lim metodlari</b>                                                       | <b>Ta'lim vositalari</b>       |
|----------|-----------------------------------------------------------------|------------------------------------------------------------------------------------------------------|-------------------------------------------------------------------------------|--------------------------------|
| 1.       | Dastlabki so'rov bosqichi                                       | Illyustrativ va tushuntirish darslar, eukursiyalar                                                   | ta'limning ko'rgazmali metodlari                                              | Tasvirli vositalar             |
| 2.       | Baholash va tuzatish bosqichi                                   | Murakkab mavzularni o'rgatish jarayoni bosqichlari asosida muammoli darslar, darsdan tashqari ishlar | ta'limning muammoli izlanish, reproduktiv evristik, mustaqil ishlar metodlari | Matnli vositalar               |
| 3.       | Mustaqil baholash bosqichi                                      | Amaliy topshiriqlarni bajarish bo'yicha dasturlangan dars, eukursiyalar                              | Ta'limning amaliy metodlari                                                   | audio-vizual vositalar         |
| 4.       | Yakuniy saralash bosqichi                                       | Murakkab mavzularni o'qitish bo'yicha nostandart dars, sinfdan tashqari ishlar                       | ta'limning induktiv va deduktiv metodlari                                     | yordamchi va modelli vositalar |



Yuqorida qayd etilgan metodlardan tashqari hozirgi zamon analiz-sintez taqqoslash, qiyoslash metodlarining an'anaviy (odat bo'lib qolgan) prinsiplaridan solishtirish, kuzatish xususiyati, o'quvchilarning jonli tabiat vositalariga asoslanish, metod asosiga tashkiliy tomondan tayyorlov va asosiy davrga bo'linishi va nisbatan yaqindan shakllagan yoki tashkil topish jarayonida bo'lgan printsiplari mavjud. Biologik jarayonlarda talabalarga differensial va individual yondashish, tabiat, borliqqa oid boshlang'ich tushunchalarni nazariy va amaliy berib borish, ko'rgazmalilik prinsipini qo'llab tahlil qilish ko'nikmalari shakllantiriladi.

Fanni o'qitish jarayonida keltirilgan mavzular nazariy qoidalaridan foydalanilgan holda uni aniq-metodik amalga oshirishga o'tishni ketma-ket ochib beradi. Ta'lim-tarbiya jarayonida modulli ta'lim texnologiyasidan foydalanish uchun o'qituvchi quyidagi ishlarni amalga oshirishi lozim: o'quv materiallarini modulli rejalashtirish. O'quv yili boshida qaysi mavzularni modulli ta'lim texnologiyasidan foydalanib o'rganilishini belgilashi; mazkur mavzular bo'yicha modul dars ishlanmalarini loyihalashi; mavzuning ta'limiy, tarbiyaviy va rivojlantiruvchi maqsadlariga muvofiq holda modul dasturlarini tuzishdan iborat.

Modulli texnologiyaning maqsadi, dars mashg'ulotlarni o'tkazish metodikasining bosqichma-bosqich amalga oshirilishi orqali ro'yobga chiqadi. Modul o'qitish usuli asosida dars mashg'ulotlarining loyihalari tuzib chiqiladi.

Dissertatsiyaning **“Bo'lajak biologiya fani o'qituvchilarini kasbiy-metodik kompetentligini rivojlantirish bo'yicha tajriba-sinov ishlarini tashkil etish va o'tkazish”** deb nomlangan uchinchi bobida pedagogik tajriba-sinov ishlarini mazmuni va uning natijalari tahlili keltirilgan.

Qo'yilgan vazifalarga mos ravishda o'tkazilgan tajriba-sinov ishlari ikki asosiy qismdan tashkil topdi: ta'kidlovchi va shakllantiruvchi tajriba-sinov bosqichlari. Tajriba-sinov ishlarining mazkur faoliyat yo'nalishlari asosiy maqsadi oliy talim muassasalari talabalarining oliy ta'lim tizimining zamonaviy biologik ta'lim talablariga mosligi va maqsadga muvofiqligi darajasini oshirishdan iborat. Bunda empirik ma'lumotlarni yig'ishning turli-tuman metodlari majmuidan foydalanildi: oliy ta'lim muassasalarida pedagogik jarayonni kuzatish, oliy ta'lim muassasalari o'qituvchilari, talabalari bilan individual suhbatlar; talabalar va o'qituvchilar anketa-so'rovnomalari; pedagogik hujjatlar tahlili.

Pedagogik tajriba-sinov ishlari “Biologiya” ta'lim yo'nalishlari bo'yicha ishlab chiqilgan bo'lajak biologiya fani o'qituvchilarining dars mashg'ulotlarda kasbiy-metodik kompetentligini rivojlantirish tajriba-sinov dasturi asosida ma'ruza va seminar mashg'ulotlar hamda mustaqil ta'limga tatbiq qilindi (4-jadval).

**4-jadval****Pedagogik tajriba-sinov ishlarida ishtirok etgan talabalar soni**

| №           | Guruhlar       | Oliy ta'lim muassasasidagi talabalar soni |                             |                            |            |
|-------------|----------------|-------------------------------------------|-----------------------------|----------------------------|------------|
|             |                | Toshkent davlat pedagogika universiteti   | Andijon davlat universiteti | Navoiy pedagogik instituti | Umumiy     |
| 1.          | Tajriba guruhi | 66                                        | 69                          | 65                         | 200        |
| 2.          | Nazorat guruhi | 65                                        | 71                          | 64                         | 200        |
| <b>jami</b> |                | <b>131</b>                                | <b>140</b>                  | <b>129</b>                 | <b>400</b> |

Ushbu 2 bosqichda o'tkazilgan tajriba-sinov ishlari bo'yicha olingan natijalarning haqqoniyligini tekshirish va statistik tahlilini o'tkazish maqsadida matematik-statistik usullar orqali qayta tahlil qilindi. Statistik tahlilni amalga oshirishda Pirsonning xi kvadrat usulidan foydalanildi.

